

## DAVLAT TILIDA ISH YURITISHDA HUJJAT TILI VA USLUBI

**Eshmurodova Nilufar Normo‘min qizi**

Termiz Davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi, 2-kurs talabasi

E-mail: [eshmurodovanilufar9@gmail.com](mailto:eshmurodovanilufar9@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta‘min etiladi. O‘zbek tili uslublarni vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo‘lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, G‘.Abdurahmonov, B.O‘rinboyev, S.Muhammedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo‘lib, ularda asosan beshta uslub – so‘zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar e‘tirof etiladi. Ushbu ilmiy maqolada o‘quvchilarga hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi haqida bilimlarga ega bo‘lish, ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o‘rganishga ko‘maklashishi xususida ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Uslub, rasmiy, ommabop, ilmiy, badiiy, so‘zlashuv.....*

### ABSTRACT

*The necessary qualities of the text of the documents, consisting of objectivity, accuracy, conciseness, conciseness, completeness of content, are provided by the unique style of the documentary language, its unique use of words, morphological and syntactic features. Functional classification of Uzbek language styles relies on two factors - linguistic and non-linguistic factors. There are variants of these styles*

*recommended by N.A. Baskakov, A. Sulaymonov, A. Shomaqsudov, G'. Abdurahmonov, B. Orinboyev, S. Muhammedov, and there are mainly five styles - colloquial, popular, scientific, formal and artistic. styles are recognized. This scientific article provides scientific information on how to help students gain knowledge about the unique style of the documentary language and learn the possibilities of our native language in the speech process.*

**Key words:** *style, formal, popular, scientific, artistic, colloquial.....*

## **KIRISH.**

Davlat tilida ish yuritishni hujjatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hujjatchilikning tili va beshta uslubiy omili esa alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog'i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini qo'llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinki tantanavor yoki bachkana so'zlar, dag'al so'zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

**Rasmiy uslub** hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas barcha

rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: *O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.* (O'zR Konstitusiyasi, 7 - modda). Qolip. Fikr – mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: *O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir* (1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning 16 - moddasidan). Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning ayniqsa qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

**Ommabop uslub** o'zbek tilshunosligida filologiya fanlar nomzodi T.Qurbonov tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan. Til taraqqiyotida

muhim omil sanaladigan publisistika o‘z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi. Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Ommabop uslub ma’lum ma’noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazliligi, ta’sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo‘llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo‘llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publisistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo‘llanilishi bilan ilmiy uslubga o‘xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo‘ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo‘yadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar shuni ko‘rsatadiki, bu uslubdagi matnda so‘zlashuv uslubi elementlari ham ba’zan aralashib ketishi mumkin.

Ma’lumki, publisistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyaeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e’lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. O‘zbek tilshunosligida filologiya fanlar nomzodi T.Qurbonov bu uslubda so‘z yasashning ikki ko‘rinishi – morfologik va kompozitsion usulining mahsuldor ekanligini ta’kidlaydi hamda bunda *-chi*, *-shunos*, *-parast*, *-xona*, *-dosh*, *-liq* *-cha* birliklarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

**Ilmiy uslub** ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazko‘r uslubning shakllanishiga asos bo‘ladi. Ilmiy tafakko‘r fikrlashning o‘ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me’yorning o‘ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darsliq o‘quv qo‘llanmasi, o‘quv-

metodik qo‘llanma, dastur, ma‘ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko‘rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma‘lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me‘yoriga ko‘ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

**1. Anqlik.** Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, anqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so‘zlarni aniq, asosan bir ma‘noda qo‘llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo‘lmaganda, neytral variantini qo‘llash taqozo etiladi.

**2. Ob‘yektivlik.** Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi. Ma‘lum bo‘ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko‘rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

**3. Mantiqiy izchillik.** Ilmiy bayon uslubining o‘ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so‘zlar, gaplar, abzaslar o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma‘lumki, ma‘lum bo‘ladiki, ta‘kidlash lozimki, ta‘kidlash o‘rinliki, darhaqiqat, binobarin, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko‘plab bog‘lovchi vazifasini bajaradigan so‘z va birikmalar qo‘llaniladi.

**4. Qisqalik.** Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imqoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo‘lib, asosan sodda yoyiq holda bo‘ladi. Agar fikr qo‘shma gaplar yordamida ifodalansa, bog‘lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko‘pligi hisoblanadi. Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to‘g‘risida M.Mukarramovning «Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida

quyidagi fikrlar bayon qilingan: Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. *-lar* ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

***Badiiy uslub*** o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, Grammatik, leksik, va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi. Badiiy uslubda fe'ning barcha nisbat shakllari ishlatiladi. Ammo aniq nisbatdagi fe'llar birmuncha faol. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy asar bayonida zamon shakllarining barchasi ishtirok etadi. Lekin odatda badiiy asarlarda bo'lib o'tgan voqyealarning hikoya qilinishi tufayli unda fe'ning o'tgan zamon shakllari mahsuldor hisoblanadi. Shu bilan birga,



tasvirdagi keng ko‘lamlilik muallif tilida hozirgi va kelasi zamon shakllarining ishlatilishini ham taqozo qiladi. Ekspressiv-emosionallikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida inversiya so‘zlashuv va badiiy uslubga tegishlidir. So‘roq gaplarning ritorik turi, undov gaplar, his-hayajon gaplar ham so‘zlashuv va badiiy uslubga xos. Bu uslubdagi gap qurilishi ham ma’lum darajada farqlanadi. Buning ustiga tilda sinonimik variantlar borligi uchun uslubiy me’yorni belgilash imkoniyati mavjud. A.Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» ana shu sinonimik variantlarni farqlashda amaliy yordam beradi. Frazologizmlar mohiyat e’tibori bilan asosan so‘zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar-esa ma’lum muddat keyin yuzaga keladi. Badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko‘plab birliklarning tilda me’yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta’sir o‘tkazib turadi.

**So‘zlashuv uslubi** kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o‘ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma’lum ma’noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo‘yish mumkin. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg‘un bo‘lishida ko‘rinadi. Ayni paytda bu holat so‘zlashuv uslubidagi me’yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me’yorni tayin etishga imkon bermaydi. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos jihatlari, birinchidan, nutq elliptik xarakterda bo‘ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo‘ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo‘ladi. Ikkinchidan, so‘zlashuv nutqida til birliklari o‘zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Uchinchidan, bu uslubda ohang - intonsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og‘zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo‘lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so‘z va gap urg‘usi kabi ko‘rinishlari ma’noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko‘rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

Soʻzlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik oʻziga xosliklarga ega. Nutqda tovushlarning uygʻunlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush oʻrnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning oʻrin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*oʻramol, fikir, banka*), tushirib qoldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar avvalo soʻzlashuv uslubida namoyon boʻladi. Soʻzlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yoʻq, albatta, aha, xoʻp* singari soʻzlar nutqda koʻp ishlatiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Hujjat tili va uslubi haqidagi munozara va natijalar odatda hujjatda ishlatiladigan til va uslubning samaradorligi va taʼsirini tahlil qilish va baholashni oʻz ichiga oladi. Ushbu tahlil quyidagilarni oʻz ichiga olishi mumkin:

1. Aniqlik va oʻqilishi mumkin: Muhokama hujjat tili va uslubi qanchalik aniq va tushunarli ekanligiga eʼtibor qaratishi mumkin. Bu oddiy tildan foydalanishni baholash, keraksiz jargonlardan qochish va hujjatning moʻljallangan auditoriya uchun ochiq boʻlishini taʼminlashni oʻz ichiga olishi mumkin.

2. Ohang va ovoz: Muhokama hujjatning ohangi va ovozini oʻrganib, uning mavzu va auditoriyaga mos kelishini baholashi mumkin. Hujjat jozibador, ishonarli yoki maʼlumot beruvchi ekanligini koʻrib chiqishi mumkin.

3. Tuzilmasi va tashkiloti: Muhokama hujjatning tuzilishi va tashkil etilishini baholashi mumkin. Bu maʼlumotlarning mantiqiy oqimini taʼminlash uchun sarlavhalar, kichik sarlavhalar va oʻtishlardan foydalanishni baholashni oʻz ichiga olishi mumkin. Shuningdek, hujjat oʻquvchini mazmuni boʻyicha samarali yoʻnaltiradimi yoki yoʻqmi, koʻrib chiqilishi mumkin.

4. Grammatika va sintaksis: Muhokama hujjatda ishlatiladigan grammatika va sintaksisni tekshirishi mumkin. U tildan foydalanishning toʻgʻriligi va izchilligini baholashni, yaxshilash mumkin boʻlgan sohalarni aniqlashni va har



qanday grammatik xatolar yoki nomuvofiqliklarni bartaraf etishni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Vizual taqdimot: Munozarada hujjatning vizual taqdimoti, jumladan formatlash, sarlavhalar, nuqtalar, jadvallar va rasmlardan foydalanish ko'rib chiqilishi mumkin. Bu elementlar hujjatning o'qilishi va tushunarligini qanchalik yaxshilashini baholashi mumkin.

Hujjat tili va uslubini tahlil qilish va baholash natijalari uning kuchli va zaif tomonlari haqida tushuncha beradi hamda yaxshilash uchun potentsial sohalarni taklif qiladi. Ushbu natijalar hujjat o'z xabarini auditoriyaga samarali yetkazishini ta'minlash uchun tahrir va takomillashtirishga yordam beradi.

Hujjat tili va uslubi hujjatning umumiy ohangi, tuzilishi va taqdimotini bildiradi. U so'zlarni tanlash, jumla tuzilishi, formatlash va umumiy ravshanlik kabi omillarni o'z ichiga oladi. Hujjatda ishlatiladigan til va uslub maqsad, auditoriya va kontekstga qarab farq qilishi mumkin. Ko'zlangan xabarni samarali etkazish va o'quvchilarni jalb qilish uchun mos til va uslubdan foydalanish muhim. Olimlarning hujjat tili va uslubi haqidagi fikrlari ularning shaxsiy xohishlariga va hujjatning o'ziga xos kontekstiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, olimlarning umumiy taxminlari bor:

1. Aniqlik: Olimlar tushunarli va tushunarli hujjatlarni qadrlashadi. Ular keraksiz jargon yoki murakkab atamalardan saqlaydigan ixcham va sodda tilni afzal ko'radilar.

2. Aniqlik: Olimlar hujjatlar ilmiy atama va tushunchalardan foydalanishda to'g'ri va aniq bo'lishini kutishadi. Ular tafsilotlarga e'tibor berishni hamda da'vo va dalillarni qo'llab-quvvatlash uchun ishonchli manbalardan foydalanishni qadrlashadi.

3. Ob'ektivlik: Olimlar ma'lumotni ob'ektiv taqdim etadigan hujjatlarni qadrlashadi va noto'g'ri yoki sub'ektiv tildan qochishadi. Ular hujjatda muvozanatli va dalillarga asoslangan yondashishni kutishadi.

4. Tuzilish: Olimlar mantiqiy tuzilishga amal qiladigan va yaxshi tashkil etilgan hujjatlarni qadrlashadi. Ular aniq sarlavhalar, kichik sarlavhalar va izchil axborot oqimini kutishadi.

5. Iqtiboslar va havolalar: Olimlar hujjatda keltirilgan da'volar va dalillarni qo'llab-quvvatlash uchun manbalar va havolalarni to'g'ri keltirishni kutishadi. Ular mavjud ilmiy adabiyotlarni to'liq tushunganliklarini ko'rsatadigan hujjatlarni qadrlashadi.

E'tiborga olish kerakki, bu fikrlar olimlar orasida farq qilishi va muayyan tadqiqot sohasi va hujjatning maqsadiga ta'sir qilishi mumkin.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1.http: [www.genderi.org](http://www.genderi.org)

2. Imamova T., Tuxvato'llina L. Ish qog'ozlari qanday yoziladi? -Toshkent, 1992.

3. Tojiev Yo., Hasanova N.,Tojimatov Q., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent, 1994.

4. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma) .-Toshkent, 2004.

5. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish (darslik) .- Toshkent, 2006.

6. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T., "Fan" 1984.

7. Qurbonov T.I. Hozirgi o'zbek adabiy tilining publisistik uslubi. ND. T., 1987.

8. @MohirAICHatBot